JADIDCHILIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA MA’NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abdullayev Ro‘zimuxammad Akramjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktaranti
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0197-8145

Annotatsiya

Maqolada jadidchilik pedagogikasining ma’naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi ilmiy-nazariy salohiyati zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik mexanizmlari aniqlanib, ularning oliy ta’lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tahlillar natijasida jadid pedagogikasida ilgari surilgan ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va mustaqil fikrlash tamoyillari bugungi kunda ma’naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion-pedagogik model taklif etildi.

Kalit so‘zlar*: jadidchilik pedagogikasi, ma’naviy-axloqiy kompetentlik, innovatsion ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, Abdulla Avloniy, jadidlar merosi, ma’rifatparvarlik.*

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’lim modellari keng joriy etilmoqda. Ushbu yondashuvlar ta’lim natijasini faqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bilan emas, balki shaxsning ijtimoiy faolligi, ma’naviy barkamolligi, axloqiy mas’uliyati hamda hayotiy kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi bilan ham baholashni nazarda tutadi. Shu bois ma’naviy-axloqiy kompetentlik zamonaviy pedagogika fanining muhim kategoriyalaridan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, ommaviy madaniyatning kengayishi, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlarining keskin ortishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ma’naviy pozitsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda ma’naviy immunitetni shakllantirish hamda axloqiy barqarorlikni ta’minlashni pedagogik faoliyatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida dolzarblashtirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarida ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [2] hamda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini boyitish, yoshlar ongida yuksak ma’naviy-

axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda milliy qadriyatlarni mustahkamlash zarurligi alohida ta’kidlangan [3].

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xalqimizning boy pedagogik merosidan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotida tub burilish yasagan tarixiy-ma’rifiy hodisa sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Jadidlar faoliyati nafaqat siyosiy yoki ma’rifiy harakat, balki o‘z davrining ilg‘or pedagogik konsepsiyasi sifatida ham namoyon bo‘lgan. Ular jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim va tarbiyani e’tirof etib, yosh avlodni ilmli, tafakkurli, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxslar etib tarbiyalashni millat istiqbolining hal qiluvchi sharti deb hisoblaganlar [4].

Jadidchilik pedagogikasining nazariy asoslari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma’rifatparvar allomalarning ilmiy-pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Ularning asarlarida inson kamoloti, tarbiya, axloq, ma’rifat, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash hamda ijtimoiy mas’uliyat masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Xususan, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari jadid pedagogikasining ma’naviy-axloqiy konsepsiyasini mujassam etgan fundamental manba hisoblanadi. Unda tarbiya inson va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida talqin qilinib, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, deya ta’kidlanadi [5]. Ushbu fikr jadid pedagogikasining asosiy mohiyatini, ya’ni ta’lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi strategik ahamiyatini yaqqol ifodalaydi.

Jadid mutafakkirlari qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning pedagogik g‘oyalari zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan ko‘plab umumiy jihatlarga ega. Jumladan, shaxsning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, ma’naviy barkamolligi, fuqarolik mas’uliyati hamda amaliy faoliyatga tayyorligi ta’lim natijasining asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv ham aynan shaxsning hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llash qobiliyatini asosiy natija sifatida e’tirof etadi [10]. Shu sababli jadid pedagogikasini ma’naviy-axloqiy kompetentlik nazariyasi nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati, jadid pedagogikasi hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [6;7;8]. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida jadidlarning tarixiy, siyosiy va ma’rifiy faoliyati yoritilgan bo‘lib, ularning pedagogik merosini zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim, xususan ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari bilan bog‘liq holda tahlil etishga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Jadid pedagogikasidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalarini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta talqin qilish hamda ular asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jadidchilik pedagogikasi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslash maqsadida nazariy tadqiqot metodlarining kompleksidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, aksiologik yondashuv hamda milliy pedagogik merosni zamonaviy ta’lim tizimi bilan integratsiyalash tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot davomida tarixiylik, tizimlilik, izchillik, obyektivlik va integrativlik prinsiplari asosiy metodologik mezon sifatida qabul qilindi [3]. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tarixiy-pedagogik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida jadidchilik harakatining shakllanish omillari, uning pedagogik maqsadlari hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid ilmiy qarashlari o‘rganildi. Tadqiqotning manbashunoslik bazasini Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va millat taraqqiyotiga oid maqolalari, Abdurauf Fitratning ma’rifatparvarlik va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan asarlari hamda jadid pedagogikasiga doir zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Kontent-tahlil metodi asosida jadid pedagogikasida uchraydigan “tarbiya”, “axloq”, “ma’rifat”, “ilm”, “vatan”, “millat”, “komil inson”, “ijtimoiy mas’uliyat” va “mustaqil fikrlash” kabi tayanch tushunchalarning mazmun-mohiyati tahlil qilindi. Mazkur tushunchalar zamonaviy ma’naviy-axloqiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari bilan qiyoslanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va pedagogik imkoniyatlari aniqlandi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan taqqoslandi. Tahlillar natijasida jadid pedagogikasida ilgari surilgan ma’rifatparvarlik, axloqiy yetuklik, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash g‘oyalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari bilan uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslandi [9]. Tizimli yondashuv metodi ma’naviy-axloqiy kompetentlikni o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan integrativ tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot davomida mazkur kompetentlikning kognitiv, qadriyatli-motivatsion, refleksiv va amaliy-faoliyat komponentlari ajratib ko‘rsatildi hamda ularning jadid pedagogikasidagi nazariy manbalari aniqlashtirildi. Aksiologik yondashuv asosida jadid pedagogikasida ilgari surilgan ilmparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash kabi qadriyatlarning zamonaviy tarbiya jarayonidagi ahamiyati baholandi. Mazkur qadriyatlarning ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishdagi metodologik imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida pedagogik modellashtirish metodidan foydalanildi. Mazkur metod asosida jadid pedagogik merosi hamda zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarining integratsiyasiga tayanuvchi ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Modelda jadid pedagogikasining ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatga oid g‘oyalari metodologik asos sifatida qabul qilinib, ular muammoli ta’lim, refleksiv pedagogika, mentorlik, keys-stadi, loyiha asosidagi ta’lim va raqamli ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, jadid mutafakkirlarining asarlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar qiyosiy tahlil qilindi, olingan ma’lumotlar umumlashtirildi hamda ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Pedagogik modellashtirish metodi asosida jadid pedagogikasi g‘oyalari hamda zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarining integratsiyasiga tayanuvchi ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur model talabaning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish, refleksiv faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat. Modelning tarkibiy bosqichlari, yetakchi pedagogik mexanizmlari va kutilayotgan natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jadid pedagogikasi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish modeli

№Bosqich (maqsad va mazmun) Yetakchi innovatsion pedagogik mexanizm Kutilayotgan natija

1 Jadid pedagogik merosini o‘rganish va tahlil qilish Manbalarni o‘rganish, tarixiy-pedagogik va kontent-tahlil Ta’limning tarixiy-intellektual poydevori shakllanadi

2 Ma’naviy qadriyatlar tizimini zamonaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish Aksiologik yondashuv, qadriyatga yo‘naltirilgan tarbiyaviy mashg‘ulotlar Talabaning ma’naviy dunyoqarashi kengayadi

3 Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish Muammoli ta’lim, keys-stadi, interaktiv va raqamli ta’lim vositalari Ta’lim jarayoni zamonaviylashadi, o‘zlashtirish samaradorligi oshadi

4 Refleksiv faoliyatni shakllantirish O‘z-o‘zini tahlil qilish, portfolio, individual rivojlanish rejasi, mentorlik Talabaning mustaqil va tanqidiy fikrlashi rivojlanadi

5 Ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish Loyiha asosidagi ta’lim, axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish Mas’uliyatli, qadriyatga yo‘naltirilgan shaxs shakllanadi

6 Ijtimoiy faol va barkamol shaxsni tarbiyalash Volontyorlik, ijtimoiy loyihalar, jamoaviy faoliyat Jamiyatga faol, yetuk va tashabbuskor shaxs tayyorlanadi

Jadvalda keltirilgan model jadid pedagogikasining ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatga oid g‘oyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash asosida ishlab chiqildi. Modelning izchil amalga oshirilishi talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetentlikning kognitiv, qadriyatli-motivatsion, refleksiv hamda amaliy-faoliyat komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur model ta’lim jarayonida milliy pedagogik meros va innovatsion yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, jadid mutafakkirlarining asarlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar

hamda dissertatsiyalar qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, tizimlashtirildi va ular asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida jadid pedagogik merosining ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan integratsiyalashning nazariy asoslari aniqlandi. O‘tkazilgan tarixiy-pedagogik, qiyosiy va kontent-tahlillar natijasida jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarning bugungi ta’lim tizimi uchun metodologik ahamiyatga egaligi asoslandi. Jadid pedagogikasining markazida shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, ma’rifat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari turadi. Ayniqsa, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat asarlarida ta’limning nafaqat bilim berish, balki barkamol insonni tarbiyalash vositasi ekanligi alohida ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta’limning asosiy tamoyillari bilan mazmunan uyg‘unlik kasb etadi.

Tadqiqot natijasida ma’naviy-axloqiy kompetentlikning kognitiv, qadriyatli-motivatsion, refleksiv va amaliy-faoliyat komponentlarini rivojlantirishda jadid pedagogikasining imkoniyatlari aniqlandi. Xususan, jadidlarning ilm-ma’rifatga asoslangan tarbiya konsepsiyasi kognitiv komponentning rivojlanishiga xizmat qilsa, ularning axloqiy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashga oid qarashlari qadriyatli-motivatsion komponentning shakllanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, jadid pedagogikasida ilgari surilgan mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishlash va ijtimoiy faollik tamoyillari refleksiv hamda amaliy-faoliyat komponentlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa jadid pedagogik merosining zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bilan metodologik jihatdan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida jadid pedagogikasi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda jadid pedagogikasining ma’rifatparvarlik, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatga oid g‘oyalari muammoli ta’lim, keys-stadi, refleksiv pedagogika, mentorlik, loyiha asosidagi ta’lim hamda raqamli ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalashtirildi. Natijada ma’naviy-axloqiy kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizim yaratildi.

Tahlillar jadid allomalari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarning bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolganligini ko‘rsatdi. Xususan, ta’limning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirish, yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish hamda fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirish kabi vazifalarni amalga oshirishda jadid pedagogik merosi muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jadid pedagogik merosining zamonaviy ta’lim tizimida faqat tarixiy-pedagogik fenomen sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik mexanizmlarning nazariy-metodologik asosi sifatida ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Jadid pedagogik merosining nazariy tahlili uning zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan chuqur metodologik va konseptual uzviylikka ega ekanligini

ko‘rsatadi. Ushbu uzviylik tarixiy-g‘oyaviy, metodologik va amaliy-pedagogik darajalarda namoyon bo‘ladi.

Birinchi darajada, jadid pedagogikasi ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv zamonaviy holistik ta’lim paradigmasi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Chunki holistik ta’lim konsepsiyasi shaxsning intellektual, ma’naviy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaraydi. Ikkinchi darajada, jadidlarning “usuli jadid” konsepsiyasi va unda ilgari surilgan pedagogik tamoyillar zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashadi. Xususan, ta’limning tushunarliligi, amaliy yo‘naltirilganligi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish va o‘quvchi faolligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar bugungi kompetensiyaviy ta’lim, interaktiv metodlar hamda raqamli pedagogika tamoyillari bilan mushtaraklik kasb etadi [11]. Bu holat pedagogik innovatsiyalar tarixiy tajriba va zamonaviy ehtiyojlarning uzviy rivojlanishi natijasida shakllanishini tasdiqlaydi. Uchinchi darajada, jadid pedagogikasida alohida o‘rin tutuvchi mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishlash va shaxsiy mas’uliyat g‘oyalari zamonaviy refleksiv pedagogika hamda metakognitiv rivojlanish nazariyalari bilan yaqin aloqadorlikka ega. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur g‘oyalar talabalarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [12]. Shu jihatdan jadid pedagogikasi an’anaviy transmissiv ta’lim modelidan ko‘ra konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarga yaqin turadi. Chunki unda ta’lim oluvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi obyekt emas, balki bilimni faol ravishda o‘zlashtiruvchi va amaliyotda qo‘llovchi subyekt sifatida qaraladi.

Tahlillar jadidlarning “ma’rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish” g‘oyasi zamonaviy fuqarolik kompetensiyasi, ijtimoiy faollik va mas’uliyat tushunchalari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda yoshlarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalalari jadid mutafakkirlari ilgari surgan g‘oyalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, jadid pedagogik merosini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiyalash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, jadid pedagogikasi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning yagona ilmiy-metodik platformasi hali to‘liq shakllanmagan. Pedagoglarning innovatsion kompetensiyalari, raqamli ta’lim muhitidan foydalanish darajasi va metodik ta’minotdagi farqlar mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etishda qo‘shimcha ilmiy-metodik ishlanmalarni talab qiladi. Shu sababli kelgusida jadid pedagogik merosi asosida ishlab chiqilgan innovatsion-pedagogik modelning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali o‘rganish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida jadid pedagogik merosining ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishdagi nazariy va metodologik imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijada jadid mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ma’rifatparvarlik, axloqiy

tarbiya, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va mustaqil fikrlash g‘oyalari zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari bilan o‘zaro uyg‘unligi aniqlandi. Tadqiqot doirasida jadid pedagogikasi g‘oyalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish modeli taklif etildi. Model ma’naviy-axloqiy kompetentlikning kognitiv, qadriyatli-motivatsion, refleksiv va amaliy-faoliyat komponentlarini izchil rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Olingan ilmiy xulosalar jadid pedagogik merosidan zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanish bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ularda fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF–60-son Farmoni. (2022, 28-yanvar). Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637). (2020, 23-sentabr). Toshkent.
3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori bilan tasdiqlangan. (2019). Toshkent.
4. Qosimov, B. (2004). Jadidchilik va milliy uyg‘onish. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Abdullayev, R. A. (2024). Talabalarni ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. PEDAGOGS, 48(2), 181–184.
7. Maqsudov, U. Q., & Abdullaev, R. A. (2024). The spiritual-moral educational significance of Jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloni’s works. Экономика и социум, (2-1(117)), 422–424.
8. Akramjon o‘g‘li, A. R. Z. (2025). Jadidchilik pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati. Fergana Methodical School, (2), 42–48.
9. Nishonova, S., & Hasanboyev, J. (2021). Pedagogika tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Khalid, A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press.
11. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.
12. A.Abduazizov Jadid pedagogik tafakkuri va uning taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
13. B.To‘raqulov O‘zbek pedagogik fikri taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
14. I.Ergashev Turkiston jadidlarining ma‘‘rifiy faoliyati. – Toshkent: Tafakkur, 2022.